



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№4/2025

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 120 sahifa,
15-aprel, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Qirg'izboyev Abdug'afur Karimjonovich
Tarix fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Doctor of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA

XXI asr tibbiyot atamashunosligi va unga ta'rif.....	12
<i>Achilov Muzaffar Norquliyevich</i>	
“4K” modeliga asoslangan ta’limda interaktiv metodlar va texnologiyalardan foydalanish usullari	15
<i>Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi</i>	
Oliy ta’lim muassasalari kafedrası faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik risklarni boshqarish mexanizmi.....	18
<i>Djalalov Baxromjan Begmurzayevich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik aspektlari.....	24
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Urma zarbli cholg’ular turlari va ularda ijro etish usullari	27
<i>Egamkulov Oybek Altmishevich</i>	
Umuminsoniy va diniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda dialektikaning roli	31
<i>Ergasheva Guzal Maxkambayevna</i>	
Bo’lg’usi tarbiyachilarda ijtimoiy intellektni shakllantirish zamon talabi.....	34
<i>Ermatova Gulnoz Pirimovna</i>	
Boshlang’ich ta’lim tarbiya fanida o’yin texnologilardan foydalanish metodikasi	37
<i>Farsaxonova Dilafuz Rizaxonovna</i>	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining yo’nalishlari va usullari ...	41
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug’ofurovna</i>	
Kurash sport turiga qiziquvchi ayollarning motivatsiya va o’z-o’zini anglash darajasi.....	44
<i>Mamaraimova Ra’no Usmanovna</i>	
The Teaching of Oral Production in the FFL Classroom: Linguistic and Psychological Difficulties	48
<i>Narzulloyeva Dilfuza Bahriddin qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini teatrlashtirilgan faoliyat asosida rivojlantirish	54
<i>Nurmatova Iroda Toxtasinovna</i>	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik amaliyotning o’rni.....	56
<i>Shamiyeva Manzura Fayzullayevna</i>	
Globalashuv jarayonida o’quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini shakllantirish.....	59
<i>Siddikov Baxtiyor Saidkulovich</i>	
4-sinf o’quvchilariga maqollar ma’nosini tushuntirish usullari	63
<i>Suvonova Shohida Murodullo qizi</i>	
Kasbiy rivojlanish soatlarining pedagogik va psixologik asoslari.....	69
<i>Temirova Rushana Ravshan qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko’nikmalarni shakllantirish mazmuni	73
<i>Teshabayeva Zamira Sobirovna, Abdulatipova Mehrbon Qahramon qizi</i>	
Boshlang’ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi va xalqaro baholash dasturlari.....	76
<i>Usmonova Zulfiya Iloxomovna</i>	
Bo’lajak o’qituvchilarda konfliktologik kompetentlikning shaxs sifatlariga aloqadorligi	79
<i>Muxammadiyeva Xadicha Karomatovna</i>	
Русская документальная проза как отражение прошлого и настоящего общества	82
<i>Дустова Ирода Шукрулло кизи</i>	
Размышления о возникновении человеческих эмоций	86
<i>Умарова Навбахор Шокировна, Зарипова Нигинабону Фахритдиновна</i>	
Проблемы регулирования терминов в языкознании.....	89
<i>Курбанова Гузаль Абдурахимовна</i>	



Педагогические основы формирования интереса дошкольников к изучению иностранного языка в игровой среде.....	93
Курбанова Назира Низомиддиновна	
Механика fanining rivojlanish tarixi.....	97
Esanov Nuriddin Qurbonovich	
Эффективность использования личностно-ориентированной технологии обучения в учебном процессе.....	100
Намозова Манзура Муродовна	
О'spirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari	104
Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich	
Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	109
Radjabova Gulnoza Bahromovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining madaniy xilma-xillikni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish usullari	113
Saffarova Mohidil Axmadovna	
Adabiy til va shevalar o'rtasidagi leksik tafovutlar: kelib chiqish sabablari va rivojlanish xususiyatlari	116
Qurbonova Asal O'tkirovna	

BO'LG'USI TARBIYACHILARDA IJTIMOIY INTELEKTNI SHAKLLANTIRISH ZAMON TALABI

Ermatova Gulnoz Pirimovna

Navoiy davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası v.b. dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim sohasi pedagoglari va xodimlarining ijtimoiy intellektini shakllantirish jarayoni haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bo'lajak pedagog, zamonaviy ta'lim sifati, vositalarni takomillashtirish, innovatsion natijalar, amaliyotga tatbiq etish.

Abstract: This article provides information about the process of forming the social intelligence of future teachers and employees of preschool education.

Key words: preschool education, future teacher, quality of modern education, improvement of tools, innovative results, implementation.

Аннотация: В данной статье представлена информация о процессе формирования социального интеллекта будущих педагогов и сотрудников дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, будущий педагог, качество современного образования, совершенствование инструментов, инновационные результаты, внедрение.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash hamda uni butun kelajagini belgilab beradigan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda ta'lim-tarbiya berish har doimgidan ham dolzarb sanaladi. Millatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni keyingi ta'lim tizimlariga tayyorlashda ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan maskan hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda bu sohaga e'tibor yanada kuchaymoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- maydagi PQ-4312-son'li Qarori – "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limni 2030- yilgacha rivojlantirish" Konsepsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bilan birga, maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish haqida fikrlar bildirilgan ^[2].

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun²da ham maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, pedagoglarning huquq va majburiyatlari, ularning kasbiy sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish, ijodiy tashabbus ko'rsatish haqida ma'lumotlar belgilab berilgan ^[1].

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun³ining 3- moddasida ta'lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilat-

1 <https://lex.uz/docs/-4327235>

2 <https://lex.uz/docs/-4646908>

3 <https://lex.uz/docs/-6786401>



larga ega bo'lgan jismoniy shaxs pedagog ekanligi, pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilishi, ularning ijtimoiy himoyasi ta'minlanishi, huquqlari amalga oshirilishi uchun kafolatlar berilgan. Pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi, ta'lim tizimida ishlayotgan pedagogning kasbiy darajasiga doir talablar pedagogning kasbiy standartlarida belgilanishi, qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilishi mumkinligi haqida fikrlar bayon etilgan ^[3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Darhaqiqat, tajribali, yuqori malakali, kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar va pedagoglarni o'quv-tarbiya jarayoniga jalb qilish bugungi kunda asosiy masala hisoblanadi. Barcha qabul qilinayotgan hujjatlar uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sanalmish maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish bilan birga, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashga ham xizmat qilmoqda.

Bu xususida "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"⁴da ham maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022–2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish jarayonlari maqsad qilib belgilangan ^[4]. Bugungi kunda sohaga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, mamlakatimiz rahbari ham: "Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar – yuqori malakali pedagog va murabbiylardir", deya ta'kidlaganlar. Qabul qilingan qarorlarning amaldagi isboti sifatida ilg'or xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari maxsus sirtqi bo'limlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha 2018–2023-yillar uchun kvotalar ajratildi.

Ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash bilan cheklanib qolmay, balki zamon talablariga mos, kasbiy faoliyat uchun zaruriy sifat va fazilatlarini egallagan, ijtimoiy faol pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning pedagogik-psixologik kompetentligini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar ham olib borilmoqda. Ayni paytda pedagog xodimlarimiz, pedagoglarimizning ijtimoiy intellektini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim sifatini va vositalarini takomillashtirish, erishilgan innovatsion natijalarni amaliyotga tatbiq etish masalasi ham zaruriy omillardandir.

Bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy intellektning shakllanganligi tarbiyalanuvchilarning emotsional-irodaviy hamda psixologik rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatishga, bilish faoliyatining faollashuviga, bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishiga, atrof-dagilar bilan o'zaro munosabatlarda ularning ijtimoiy rollarni identifikatsiyalashuviga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagog ijtimoiy intellektini belgilab beruvchi omillarni aniqlash, tadqiq qilish va rivojlantirish masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR


Ayni paytda har bir bo'lajak tarbiyachini tayyorlashda, bugungi kunda oliy ta'lim tizimlarida berilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy bilimlar ularning kelgusidagi faoliyatlarining ijtimoiy-psixologik samaradorligi, eng avvalo, pedagogik mahorati, muomala madaniyati va intellektual salohiyatiga ko'p jihatdan bog'liq ekani yanada yaqqolroq sezilmoqda. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida ijtimoiy intellektning ustuvorligi ularning faoliyati samaradorligini oshirib, bunga ijobiy ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni shakllantiradi hamda bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik-psixologik kompetentligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy intellekt – pedagog kasbiy kompetentligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida uning faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladigan, ayni paytda shaxsiy va kasbiy kamolot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladigan, kasbiy samaradorligini bevosita ta'minlovchi omillardandir. U pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlarida, nutqi, muomalasi, munosabati, xarakter xususiyatlari bilan tashqi va ichki xulq-atvori (imidji)da, shuningdek, barcha bilim, ko'nikma va malakalari, pedagogik qobiliyati hamda mahoratida namoyon bo'ladi.

4 <https://lex.uz/docs/-5841063>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". 2019-yil 8-may, PQ-4312-son Qaror. <https://lex.uz/docs/-4327235>
3. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. 2024-yil 1-fevral, O'RQ-901-son. <https://lex.uz/docs/-6786401>
4. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. 2022-yil 28-yanvar, PF-60. <https://lex.uz/docs/-5841063>
5. Pirimovna, E.G. Innovative Exemplary Abilities of Amir Temur in the Organizational Abilities of Youth Formation. European Scholar Journal, 1(4), 12–14.
6. Pirimovna, E.G. Bolalarda xalq o'yinlari orqali ijtimoiy intellektni shakllantirishning ijtimoiy omillari. Pedagoglar jurnali, 1(1), 285–287.
7. Эрматова Г.П. Роль народного фольклора в формировании социального интеллекта у детей. Актуальные исследования. Учредители: ООО Агентство перспективных научных исследований.
8. Pirimovna, E.G. The Problem of Social Intelligence and Its Interpretation in Scientific Sources. BioGecko, 12(4), 631–636.
9. Pirimovna, E.G. Psychological Factors for the Formation of Social Intelligence in Teachers of Preschool Educational Organization. International Scientific and Current Research Conferences, 16–19.
10. Ermatova, G.P. Mutafakkirlarimiz asarlarida xalq og'zaki ijodiyoti asosida bola ijtimoiy intellektini shakllantirish masalalarining yoritilishi. Psixologiya. Учредители: Бухарский государственный университет, 103–108.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.